

QO'QON XONLIGI TARIXIDA MUHIM ROL O'YNAGAN MALIKALAR

Raxmonova Nafosat Bohodirovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum tarix fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qo'qon xonligi davrida yashab o'tgan davlat arbobi Qurbonjon dodxoh shaxsiyati hayot faoliyati, general Skobelev bilan muzokaralari va podsho hukumatiga qarshi bo'lib o'tgan qo'zgonlar hamda Qurbonjon dodxohning mamlakat mustaqilligi uchun harakatlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Norbo'tabiy, Olimxon, Xudoyorxon, Hokimoyim, Nozikbibi, Oyimqishloq, Nodirabegim, Qurbonjon dodxoh.*

Annotation: *this article summarizes the life activities of the Personality Of The Statesman Gurbanzhan dodhakh, who lived during the reign of the Kokand Khanate, his negotiations with general Skobelev and the actions of the gozgolans and Gurbanzhan dodhakh for the independence of the country.*

Keywords: *Norbutabiy, Olimkhan, Khudoyorkhan, Hakimoyim, Nozilbibi, Mommyqishloq, Nodirabegim, Gurbanjan dodhoh.*

Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida o'zlarining bunyodkorlik ishlari, ilm ahliga homiyligi, sahovatpeshaligi bilan faol bo'lgan malikalar, jasurligi, mardligi, vatanparvarligi bilan tanilgan dodxoh ayollar, ilm-fan, san'at, adabiyot rivojlanishiga hissa qo'shgan shoiralar nomlarini ta'kidlash joiz. Xususan: O'z davrining ilm sirlarini egallagan, teran zakovatli, mehr-muhabbatda yuksak qalb sohibalari bo'lgan malikalar davlatda qamrovi birmuncha keng bo'lgan sahovatpeshalik faoliyati bilan shug'ullanganlar[1]. Mana shunday saxovatpeshalik ishlarini boshlab bergan malikalardan biri Qo'qon xonligining birinchi hukmdori Shohruhbiyning rafiqasi Nozikbibi sanaladi. Shohruhbiy hayotligining so'nggi yillarida, ya'ni taxminan 1719-yilda o'zbek urug'larini yanada jipslashtirish maqsadida Qirq urug'i oqsoqoli qizi Nozikbibiga uylanadi. Shundan so'ng Nozikbibi mavqeyi o'zgarib Nozik Oyim deb aytila boshlangan. Shohruhbiy ushbu xotini uchun Laylakxona (shaharning janubiy qismida) mavzesining bir tomonida yer-mulk in'om qiladi va bu joyda saroy barpo etadi. Ikki yillar chamasi vaqt o'tib 1721-yillar atrofida Shohruhbiy vafot etgach, Nozik Oyim bu saroyga doimiy yashash uchun ko'chib o'tadi. O'ziga in'om etilgan saroy atrofidagi ekin maydonlarini atrof qishloqlardagi nochor dehqonlarga foydalanishga taqsimlab beradi. O'zi o'g'li Abduraxmonxonni tarbiyalash bilan birga qishloq qizlarini maktab ochib savodini chiqarish bilan shug'ullanadi[2]. O'z yerlaridan kelgan mablag'lardan yetimxona ochib miskinlarni qo'llab-quvvatlaydi, qishloq maktabi harajatlariga sarf etadi. Ushbu saroy asosida yuzaga kelgan qishloqqa xalq "Oyimqishloq" deb nom beradi. Keyinchalik bu joy xonlikning boshqa aslzoda ayollari uchun ham tabarruk joyga aylanib, Qo'qon malikalari bu joyda ma'lum muddat yashashni o'z burchlari va sharafi deb biladilar[3].

Xonlik tarixida nom qoldirgan malikalardan yana biri Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy (1763-1798) ning rafiqasi, ming urug'i oqsoqolining qizi Zuhra Oyimdir. Shahar ahli malikani ming urug'idan ekanligini hisobga olib unga "Mingoyim" deb nom beradilar. Boshqa bir manbada takidlanishicha Mingoyimning asl ismi Faxrinniso bo'lib, Imomqulibekning qizi bo'lgan. Malika hukmdorga turmushga chiqqan paytida unga mahr sifatida katta yer-mulk beriladi, ushbu mulkdagi hovlilardan birida maktab ochib, otinbibilarni yollab qizlarni o'qitadi. Bir qism yerlarini turli masjid, madrasa, xonaqoh va qabristonlarga vaqf qilib beradi. Mingoyim Nozik Oyimning nabira kelini bo'lganligi uchun Oyimqishloq yaqinidagi o'z yerlarini qayinbuvisidan ibrat olib yersiz dehqonlarga taqdim etadi. Bu joyda vujudga kelgan qishloq "Oyim qo'rg'oncha" deb nomlanadi[4].

Mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegim ham Qo'qon malikalari orasida munosib o'rin egallaydi. Nodira Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi bo'lib, Rahmonqulbiy Ming urug'i o'zbeklarining ko'zga ko'ringan vakillaridan edi. Olimxon 1808-yil Toshkentda bo'lgan isyonni bostirib, Qo'qonga qaytgach, ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini berdi. So'ngra uni o'z tog'asi – Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyimga uylantirishga qaror berdi. Bu qizning aqlliligi, odobi va go'zalligi atrofga doston bo'lgan edi. Olimxon bu ishi orqali o'z tog'asi va ukasi o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini mahkamlamoqchi, shu yo'sinda o'z siyosiy hokimyatini mustahkamlamoqchi bo'ldi. Mohlar oyim Umarxon nikohiga o'tgach avval Marg'ilonga, so'ngra Qo'qonga keladi. 1810-yili Olimxon o'ldirilgach Qo'qon taxtiga Umarxon o'tiradi[5]. Mana shu davrdan boshlab Nodiraning xonlik hayotidagi roli faollashib boradi. Umarxon davrida ayollar huquqlari ma'lum borada himoya qilina boshlandi. Bunda uning rafiqasi Nodirabegimning xizmatlari benihoya kattadir. U ayollarning o'qish, yozishni o'rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishni yo'lga qo'ygan. An'anaga ko'ra Qo'qon xoni Olimxon (1798-1810) o'z hukmronligi davrida ukasi Umarxonni 1806-yilda Mohlaroyimga uylanishi munosabati bilan keliniga mahr uchun katta yer-mulk in'om etgan. Unga berilgan yer-mulk "Chek Mohlaroyim" deb ataladi. U bu mulkda ilm-ma'rifatni rivojlantiradi, yosh ijodkor qiz-juvonlarni ijodini qo'llaydi. Bundan tashqari Mohlaroyim ham Qo'qon malikalari udumlariga amal qilib qaynonasi Zuhra Oyim (Mingoyim) va momo qaynonasi Nozik Oyimdan ibrat oladi. U ham Oyim qishlog'i mavzesida yana bir qo'rg'on tashkil etib nochorlarni qo'llaydi, dehqonlarni o'zlariga foydalanishga yer-mulk bo'lib beradi bolalarini savodini chiqaradi. Buni natijasida ushbu zaminda paydo bo'lgan yangi qo'rg'onga xalq "Mohlaroyim" qo'rg'oni deb nom beradilar[6].

Qo'qon malikalari orasida qirg'izlarning saru urug'idan bo'lgan Yorqinoy (Jarqinoyim) faoliyatiga ham to'xtalib o'tish joiz. Yorqinoy 1802-yili Namangan viloyatining Uychi tumanidagi Qizil - Rabot qishlog'ida tavallud topgan. Qirg'iz tarixi ensiklopediyasi, Qirg'izistonning asl qizlari nomli kitoblarda uni Asperdi dodxoh qizi deb ko'rsatadilar. Ammo, Mahzunning "Farg'ona xonlari tarixi" asarini o'rganilishi natijasida Yorqinoy Asperdi dodxohning qizi emas, Axsilik To'xtanazar dodxohning qizi ekanligi ma'lum bo'ldi. Yorqinoyning bolalik yillari Talos vodiysining Qorabura ovulida o'tgan. Yorqinoy chiroyli, aqlli,

xushmuomala el qadrlagan qiz bo'lgan. Qo'qondagi o'zaro taxt talashishlar natijasida Talosga kelib qolgan, bo'lajak Qo'qon xoni Sherali bilan turmush quradi[7].

Sherali Qo'qon xoni bo'lgach Yorqinoy ham farzandlari bilan birga Qo'qonga xon o'rdasiga ko'chib keladi. Garchand Yorqinoy xonning ayoli sifatida muhtasham o'rdaga joylashgan bo'lsada, uni ko'chmanchi-chorvadorlarga xos bo'lgan xislatlar tark etmagan. Naql qilishlaricha Yorqinoy o'rda hovlisida chodir tiktirib, shu yerda istiqomat qilishni maqul ko'rgan. O'rdadagilar Yorqinoyni "Xonoyim", "Hokimoyim" deb hurmat qilishgan[8].

Hokimoyim dono maslahatchi, qanchadan-qancha savob ishlarning tashabbuskori bo'lgan, o'zining vafotidan so'ng qilinishi lozim bo'lgan xayrli amallarni o'g'li Xudoyorxonga vasiyat qilib qoldirgan. 1868-yil ramazon oyida Hokimoyim vafot etadi. Uni Qo'qon malikalarining hazira(bir urug' yoki oila a'zolarining qabrlaridan iborat kichik qabriston) ga dafn etadilar. Janozadan qaytgan xon uzlatda o'n kecha-kunduz surunkasiga toat-ibodat qilib, shundan keyingina davlat ishlariga aralashib, haramga kiradi[9].

Onasining vafotidan so'ng Xudoyorxon Hokimoyimga atab madrasa qurdirishga farmon beradi. Manbalarga ko'ra madrasa 1869-1870-yillarda qurib bitkazilgan. Madrasa bunyod etilgan joy va uning me'mori haqida quyidagicha ma'lumot uchraydi: "Xudoyorxon validai sharaflarini vasiyatlari birla onalarini nomiga madrasa solmoq bo'lib, mulla Turdiali mirzoni ishboshi qilib, masjidi jomening sharqida madarsayi oliy binosiga mashg'ul bo'lib, sahl vaqtida itmomig'a yetib, Madrasai "Hokim oyim" nomzod qildi. Va yana madrasai "Hokim oyim" g'a Shahrixon ustida daryodan ariq chiqarib, hiroji vaqf ayladi". Shuningdek madrasaga Xonobod, Yangi qishloq, Tojik qishloq, Qang'li, Tiliming, Oqqo'rg'on, Isa avliyo qishloqlari va yana Qo'qondagi 32 ta do'kon ham vaqf mulki qilib berilgandi[10].

Qo'qon xonligida dodxoh unvoniga sazovor bo'lgan ayollardan yana biri Qurbonjon dodxoh edi. U 1811-yil O'sh shahri yaqinidagi Orke qishlog'ida tug'iladi. Qurbon hayiti kuni tug'ilganligi uchun Qurbonjon deb ism qo'yishadi. Qurbonjon ulg'aygach dastlab, otasining do'sti To'raqulbiyning o'g'li Qulsayitga turmushga chiqadi, ammo u bilan uzoq vaqt yashay olmasdan ajrashadi. Keyinroq esa Qo'qon xonligida martabali lavozimlarda ishlagan Olimbek dodxoh bilan 1831-yilda turmush quradi. Olimbekka Qo'qon xoni Madalixon 1831-yilda dodxoh unvonini beradi. 1832-yilda esa Olimbek Andijon hokimligiga tayinlanadi. Qurbonjonni Andijon hokimi Olimbek dodxoh bilan turmush qurishi uning poytaxt Qo'qondagi o'rda xonimlari bilan yaqindan munosabat o'rnatishiga imkon beradi. 1833-yili Olimbek Qurbonjonni Qo'qon saroyiga olib kelib, malika Nodirabegimga tanishtiradi. Olimbek saroyda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgani uchun uning rafiqasiga ham katta izzat-ikrom ko'rsatiladi. Qurbonjon Qo'qon xoni, uning amaldorlari, saroy hayoti bilan tanishadi. Mashhur o'zbek shoiralari Nodirabegim, Uvaysiy va boshqalarning ta'sirida uning dunyoqarashi shakllanadi[11].

Xulosa qilib aytganda, Ming sulolasi malikalari orasida ilm ahliga homiylik qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarni qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand oilalarning o'g'il-qizlari tahsil olishi uchun maktablar barpo etish an'ana aylangan bo'lib, bu borada Nozikbibi boshlab bergan bunyodkorlik ishlari keyingi malikalar davrida ham davom ettirildi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev Ya. Xo'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanish tarixi. F.: Farg'ona, 2007. – 131-b.
2. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix. T.: Fan va texnologiya, 2014. – 134-b.
3. Esonov Z, Toshmatov Sh, Isomiddinov Z. Qo'qon xonlari o'rdalari tarixi. T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 52-b.
4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T.: Fan, 1961. – 220-b.
5. Ziyabidin Maksim. Fargana xaandarinin tarixi. B.: Turar, 2007. – 167-b.
6. Dadaboyev Ya. Xudoyorxon o'rdasi. N.: Namangan, 2016. – 100-b.
7. Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. T.: Fan va texnologiya, 2016. – 180-b.
8. Mirzoolim Mushrif. Ansof us-salotin va tavorix ul-xavoqin. T.: Adabiyot va san'at, 1995. – 79-b.
9. Alixojiyev M. Qo'qon xonligining madaniy xayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni. Tarix fan. nomz...diss. – T: 2012. – 122-b.
10. Abdullayev R. Qurbonjon dodxohning taxallusi nima? // Tafakkur. 2018. - № 4. – 116-b.
11. Sharofiddin Parmonov Shavkatovich, Xayritdinov Otabek Murotjon o'g'li. (2024). The Uniqueness Of The Fight Against Russian Invaders In The Shahrisabz Region. The Bioscan, 19 (Special Issue-1), 617-619. <https://thebioscan.com/index.php/pub/article/view/2791/2493>. pp617-619. («Web of Science»)
12. Bekturganova K. Kirgizstandin asil kizdari. Bishkek, 2006. – 51-b.
13. Sh.Sh. Parmonov. The Situation in the Emirate of Bukhara in the Middle of the 19th Century and the Beginning of General Jorabek's Political Activity. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science (2024), 117–120. <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/813>
14. Sh. Sh. Parmonov. Buxoro amirligi siyosiy jarayonlarida Shahrisabz bekligining tutgan o'rni.
15. Khayrullayevich, N. A. (2023). Cooperation of the Shanghai Cooperation Organization in the Field of Education. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 358-364.
16. Botirova Halima Eshmamatovna, Parmonov Sharofiddin Shavkatovich Journal of Advanced Zoology Ethnic History of Shakhrisabz Province at The Beginning of The Xix-Xx Centuries.
17. Nazarova Z.X."RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. Bokschi o'g'il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili. 2023.
18. Murotjon o'g'li X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.

19. Murotjon o'g'li, X. O. (2024). Madaniy antropologiya va undagi ilmiy yondashuvlarning shakllanish tarixi. International journal of science and technology, 1(16), 53-58.